

**BUXGALTERIYA BALANSI VA UNING AHAMIYATI****Ustoz :Jumaniyozov Nodirbek****Shogirt :Ozodova Kamola****Toshkent davlat iqtisodiyot  
universitet To'rtko'l fakulteti****2-kurs talabasi .****Gmail.com**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada buxgalteriya balansining nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Balansning aktiv va passiv qismlari, ularning o'zaro bog'liqligi hamda korxonada faoliyatini tahlil qilishdagi roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mavzu yuzasidan shaxsiy yondashuv asosida ayrim xulosalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** buxgalteriya balansi, aktivlar, passivlar, korxonada moliyaviy holati, kapital, moliyaviy barqarorlik, majburiyatlar*

Iqtisodiyotni samarali boshqarishda ishonchli va aniq moliyaviy axborot muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalar faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ularning moliyaviy holatini baholash hamda asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda buxgalteriya hisobi muhim axborot manbai hisoblanadi. Ayniqsa, buxgalteriya balansi korxonaning moliyaviy holatini ma'lum bir davr kesimida to'liq aks ettiruvchi asosiy hisobot shakli sifatida alohida o'rin tutadi.

Endi sizlar bilan "Balans o'zi nima?", "Buxgalteriya balansi deganda nima tushuniladi?", "Buxgalteriya balansining qanday turlari bor?" kabi savollarga javoblarni birgalikda ko'rib chiqamiz.

M.Y.Raximov, N.N.Mavlanov, N.N.Kalandarovalarning “Iqtisodiy tahlil” kitobida “Balans” tushunchasiga shunday ta’rif beriladi: “Balans” atamasi lotincha – “bis” – ikki marta, “banx” – tarozi pallası so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, ikki palla degan ma’noni anglatadi. U tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi. Buxgalteriya balansi moliyaviy hisobot tizimining o‘zak elementi bo‘lib, u xo‘jalik yurituvchi subyektning mulkiy holati va iqtisodiy barqarorligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtiradi hamda oshkor qiladi. Mazkur hisobot hujjatida korxonaning uzoq muddatli va joriy aktivlari, xususiy kapitali hamda majburiyatlari tizimli ravishda aks ettirilib, bu axborotlar tashqi va ichki foydalanuvchilar uchun subyektning moliyaviy salohiyatini tahlil qilishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, balans ko‘rsatkichlarining shaffofligi va tushunarlıligi qat’iy talab etiladi; zaruriy hollarda esa hisobot moddalari ularni batafsil izohlovchi qo‘shimcha ma‘lumotlar bilan boyitilishi lozim.

Buxgalteriya balansining maqsadi – xo‘jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya balansi uning resurslarini va moliyaviy tarkibini anglab yetishga imkoniyat berishi uchun hisobot vaqtidagi moliyaviy ahvolni aks ettirishdan iborat. Balansning jamlangan qatorlari bo‘yicha tasnifiy jihatlarini quyida ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Joriy va uzoq muddatli aktivlarni tasniflash. Har bir subyekt joriy aktivlarni va joriy majburiyatlarni buxgalteriya balansida alohida tasnif sifatida ko‘rsatishni (yoki ko‘rsatmaslikni) belgilab olishi lozim. Xo‘jalik yurituvchi subyekt bu tasnifni amalga oshirmaydigan variantni tanlab olsa, aktivlar va majburiyatlarni to‘lash muddatlariga doir axborot nima bo‘lganda ham buxgalteriya hisobining milliy standartlariga asosan ochib ko‘rsatilishi zarur.

Agar aktivlar xo‘jalik yurituvchi subyekt operatsion faoliyatining bir qismi bo‘lsa va subyektning operatsiya sikli me‘yorida o‘tayotgan paytda uni olish yoki iste‘mol qilish kutilayotgan bo‘lsa, mazkur aktivlar joriy aktivlar qatoriga kiritiladi. Agar aktivlar qayta sotish maqsadida yoki qisqa muddatda ushlab turilgan bo‘lsa va undan hisobot vaqtidan keyingi 12 oy mobaynida foydalanish kutilayotgan bo‘lsa,

bunday hollarda u joriy aktiv sifatida tasnif etilishi zarur. Ushbu tasnifiy jihatlardan farqli jihatlarda boshqa barcha aktivlar uzoq muddatli aktivlar sifatida tasnif etilishi kerak.

Xo'jalik yurituvchi subyektning operatsion sikli – bu materiallarni xarid qilish, ishlab chiqarish va naqd pulga yoki osonlik bilan pulga aylantiriladigan moliyaviy aktivlarga sotish o'rtasidagi o'rtacha vaqtdir. Uzoq muddatli va joriy operatsion aktivlarni tasnif etish maqsadida ayni shu tarmoq yoki faoliyatning shu turi uchun kattaroq davr ancha muvofiqroq hisoblanmasa, bir yil oraliq operatsion sikl hisoblanadi. Uzoq muddatli (joriy bo'lmagan) aktivlar – subyekt faoliyatida uzoq muddatli asosda foydalaniladigan aktivlar, jumladan subyektning mulki, binolari va uskunalari, moddiy aktivlari, taraqqiyot va gudvillga xarajatlar. Investitsiyalash maqsadida saqlab turilgan va hisobot kunidan boshlab, 12 oy davomida sotilishi mumkin bo'lmagan aktivlardir. Qisqa muddatli (joriy) majburiyatlar – hisobot kunidan boshlab, 12 oy davomida hisob-kitob qilinadigan majburiyatlardir. Joriy majburiyatlarning tavsifi joriy aktivlar tavsifiga o'xshashdir.

Buxgalteriya balansida aks ettirilishi lozim bo'lgan axborot. Xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya balansi moliyaviy holatning tarkibini tashkil etuvchi turli jihatlarni aks ettiradigan tarzda taqdim etilishi lozim. Quyidagilar buxgalteriya balansining majburiy unsurlari hisoblanadi:

- moddiy aktivlar;
- nomoddiy aktivlar;
- moliyaviy aktivlar;
- zaxiralar;
- debitorlik qarzi;
- pul mablag'lari va pul ekvivalentlari;
- kreditorlik qarzi;

- ajratmalar;
- foiz to'lashni talab qiluvchi majburiyatlar;
- o'z sarmoyasi va zaxiralari.

Buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishi: aktivlar, kapital va majburiyatlar

Buxgalteriya balansi axborotlariga tayangan holda xo'jalik yurituvchi subyektning moliya-xo'jalik faoliyati hamda uning natijalari baholanadi.

Buxgalteriya balansining aktivi va passivining tuzilishi hamda mazmuni undagi axborotdan foydalanuvchilar, eng avvalo, tashqi foydalanuvchilarga qaratilgan. Debitor va kreditor qarzlarning holatini ochib beruvchi, korxonaning joriy xarajatlari yoki foydasi hisobidan tashkil etilgan xususiy kapital va ayrim turdagi rezervlar shakllanishini ochib beruvchi moddalarning batafsillik darajasini yuqoriligi shundan kelib chiqadi.

Uzoq muddatli aktivlar (UMA) bo'limida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qiymati, uzoq muddatli investitsiyalar, o'rnatiladigan uskunalar, kapital qo'yilmalar, uzoq muddatli debitorlik qarzlari va muddati kechiktirilgan uzoq muddatli xarajatlar summolari oshkor qilinadi.

Joriy aktivlar (JA) bo'limida tovar-moddiy zaxiralar, kelgusi davr xarajatlari, muddati kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi, debitorlik qarzlari, pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar va boshqa joriy aktivlar summolari oshkor qilinadi.

Xususiy sarmoya (XS), o'z mablag'lari manbai (O'MM) bo'limida ustav sarmoyasi, qo'shilgan sarmoya, zaxira sarmoya, sotib olingan o'z aksiyalari, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushumlar hamda bo'lg'usi xarajatlar va to'lovlar zaxiralari oshkor qilinadi.

Majburiyatlar (M) bo'limida uzoq muddatli va joriy majburiyatlar bo'yicha axborotlar alohida oshkor etilishi lozim.

Uzoq muddatli majburiyatlar (UMM) bo'yicha mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarzlari, alohida bo'linmalarga uzoq muddatli qarzlari, sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga uzoq muddatli qarzlari, muddati kechiktirilgan uzoq muddatli daromadlar, soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar, uzoq muddatli bank kreditlari, uzoq muddatli qarzlari va boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlari summolari ko'rsatilishi kerak.

Joriy majburiyatlar (JM) bo'yicha mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarzlari, alohida bo'linmalarga qarzlari, sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga qarzlari, muddati kechiktirilgan daromadlar, soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, boshqa muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan bo'naklar, byudjetdan soliqlarga oid qarzlari, sug'urtaga oid qarzlari, davlat maqsadli jamg'armalaridan to'lovlarga oid qarzlari, ta'sischilardan qarzlari, mehnatga haq to'lashga oid qarzlari, qisqa muddatli bank kreditlari, qisqa muddatli qarzlari, uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi va boshqa kreditorlik qarzlari summolari oshkor qilinadi.

Aktivlar – xo'jalik subyektining qiymat bahosiga ega bo'lgan moddiy, shu jumladan, pul mablag'lari va debitorlik qarzlari va nomoddiy mulkidir. Aktivlarda aks ettirilgan bo'lg'usi iqtisodiy foyda, xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'lari oqimiga potensial, bevosita va bilvosita qo'shiladigan ulushdir. Bu ulush xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyatini bir qismi sifatida yuzaga kelishi mumkin. Asosiy moliyaviy hisobot shakli bu – buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdir. Boshqa moliyaviy hisobotlar bir jihatning boshqa-boshqa jihatlarini aks ettiradi. Ular qatoriga pul oqimlari, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot shakllarini kiritish mumkin.

Капитал – активlarning qiymatini va majburiyatlarni baholashga bog'liqdir. Majburiyatlar – o'zida iqtisodiy foydani ifodalovchi resurslar oqimi ehtimoli mavjud bo'lganida buxgalteriya balansida e'tirof etiladi, shuningdek, ular majburiyatlarni qabul qilish natijasidir.

Korxonaning moliyaviy holati iqtisodiy kategoriya sifatida xo'jalik subyektining o'z faoliyatini yuritish, rivojlantirish va o'z-o'zini moliyalashtirish imkoniyatlari yuzasidan kapitalning holatini xarakterlaydi. Ya'ni xo'jalik subyektining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanish darajasini, ularning maqsadli joylashtirilishi va samarali foydalanish darajasini, boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan bo'ladigan moliyaviy munosabatlarni, to'lovga qobillik va moliyaviy barqarorlik holatini tavsiflashni xarakterlaydi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida moliyaviy hisobotlarga quyidagicha tasnif beriladi. Moliyaviy hisobotlar – tadbirkorlik subyektining moliyaviy holati va moliyaviy natijalarining tartibga solingan ifodasidir. Moliyaviy hisobotlarning maqsadi turli foydalanuvchilar uchun iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda foydali bo'lgan, tadbirkorlik subyektining moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ta'minlashdan iboratdir.

Moliyaviy hisobotni tahlil etish deganda – korxonaning muayyan sanaga bo'lgan moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlar haqidagi axborotlarni analitik qayta ishlash jarayonlari tizimi tushuniladi.

### Xulosa

Buxgalteriya balansi — korxonaning ma'lum davrdagi moliyaviy holatini ko'rsatuvchi asosiy hisobotdir. U aktivlar, majburiyatlar va kapital o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi.

Xulosa qilib, balans korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash va to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Subramanyam K.R. Financial statement analysis. 11th edition. New York, Mc Graw-Hill Education, 2014. - 814 pages.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. Uchebnik. M.: Yurayt, 2018. – 470 s.
3. Jilkina A.N. Finansoviy analiz. Uchebnik. M.: Yurayt, 2018. – 285 s.
4. Raximov M. Iqtisodiyot sub‘ektlari moliyaviy holatining tahlili. O‘quv qo‘llanma. T.; Iqtisod-Moliya, 2015. -392 b.
5. Raximov M. Iqtisodiyot sub‘ektlari moliyaviy holatining tahlili. Uslubiy qo‘llanma. T.; Iqtisod-Moliya, 2015. -156 b.
6. Pardayev M.Q., Isroilov J.I., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. T.:Print Line Group, 2017.-533 b.
7. Steven M. Bragg. Financial analysis: A business decision guide. 2nd edition. Colorado, Accounting Tools, Inc., 2014. –325 pages.
8. Shagiyasov T.Sh., Sagdillaeva Z.A., Urmanbekova I.F. Ekonomicheskiy analiz. /Uchebnik –T.: Iqtisod-Moliya, 2017. – 428 s.